


Xona birliklariga oid

1. Berilgan son uchun savollarning javoblarini toping:



- Minglar xonasidagi raqami yuzlar xonasidagi raqamdan nechtaga kam?
- Birlar xonasidagi raqami yuz minglar xonasidagi raqamidan nechtaga ko'p?
- O'nlar va millionlar xonasidagi raqamlar ko'paytmasini toping.
- Minglar sinfidagi raqamlar yig'indisi millionlar sinfidagi raqamlar ko'paytmasidan qanchaga kam?
- Barcha raqamlar yig'indisini toping.
- Toq o'rindagi raqamlar yig'indisini toping:

Quyidagi sonlar qaysi mashqlarning javoblari?

1) 24 2) 31 3) 8 4) 7 5) 5 6) 3

- A) 1-c, 2-e, 3-f, 4-a, 5-d, 6-b B) 1-c, 2-e, 3-a, 4-f, 5-a, 6-b
 C) 1-c, 2-a, 3-f, 4-e, 5-d, 6-b D) 1-c, 2-e, 3-a, 4-f, 5-d, 6-b

Tayyorlovchi: *Ramazon Normamatov, Abrorbek Butaev*

Prezident maktab, Al-Xorazmiy va Ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorgarlik ko'rish uchun "Onlayn darslarimizga" ishtirok eting.

2. Berilgan son uchun savollarning javobini toping:



- a) Bu sonning toq o'ringa turgan raqamlari yig'indisi juft o'ringa turgan raqamlar ko'paytmasidan qanchaga kam?
- b) Bu sonning birlar xonasidagi raqami minglar xonasidagi raqamidan nechtaga ko'p?
- c) Bu sonning raqamlari yig'indisini toping.
- d) Bu sonning toq o'ringa turgan raqamlari ko'paytmasi juft o'ringa turgan raqamlar yig'indisidan qanchaga kam?
- j) Bu sonning minglar xonasidagi raqami 2 ga ortib, yuzlar xonasidagi raqami 3 ga kamaysa son nechaga ortadi?
- k) Bu sonning yuz minglar xonasiga raqami 2 ga kamayib, o'nlar xonasidagi son 5 ga ortsa son nechaga kamayadi?

Quyidagi sonlar qaysi mashqlarning javoblari?

1) 199970 2) 15 3) 1700 4) 149 5) 2 6) 26

A) 1-k 2-j 3-a 4 -d 5-c 6-b

B) 1-k 2-a 3-j 4 -d 5-b 6-c

C) 1-k 2-b 3-c 4 -d 5-a 6-j

Tayyorlovchi: *Ramazon Normamatov, Abrorbek Butaev*

Prezident maktab, Al-Xorazmiy va Ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorgarlik ko'rish uchun "[Onlayn darslarimizga](#)" ishtirok eting.



- 3.** Ramazon tog'o yozuv taxtasiga bir son yozdilar.
- a) U yozgan sonning toq o'rinda turgan raqamlari yig'indisi juft o'rinda turgan raqamlar ko'paytmasidan qanchaga kam?
- b) Bu sonning birlar xonasidagi raqami minglar xonasidagi raqamidan nechtaga kam?
- c) Bu sonning raqamlari yi'g'indisini toping.

d) Bu sonning toq o'rinda turgan raqamlari ko'paytmasi juft o'rinda turgan raqamlar yig'indisidan qanchaga kam?

j) Bu sonning minglar xonasidagi raqami 2 ga ortib, yuzlar xonasidagi raqami 1 ga kamaysa son nechaga ortadi?

k) Bu sonning o'n minglar xonasiga raqami 3 ga kamayib, o'nlar xonasidagi son 5 ga ortsa son nechaga kamayadi?

Quyidagi sonlar qaysi mashqlarning javoblari?

1) 30 2) 42 3) 4 4) 29950 5) 1900 6) 104

A) 1-c 2-a 3-b 4 -k 5-j 6-d B) 1-c 2-a 3-j 4 -d 5-b 6-k

C) 1-c 2-a 3-b 4 -d 5-k 6-j

4. Sevinch doskada **569782** raqamlardan tashkil topgan son yozdi. Bu sonning yuzlar xonasidagi raqam o'n minglar xonasidagi raqamdan qanday farq qiladi?

A)1

B)2

C) 4

D)3

5. Oshpazning yonidagi ovqatlarga har xil raqamlar solingan. Oshpaz shu raqamlarga qarab Birinchi qizil rangli , ikkinchi siyohrang rangli hamda birlar xonasida qora rangli raqamlardan tashkil topgan to'rt xonali son hosil qildi. U hosil qilgan sonni yozing.

A)6593

B)659

C)6539

D)5369



Tayyorlovchi: *Ramazon Normamatov, Abrorbek Butaev*

Prezident maktab, Al-Xorazmiy va Ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorgarlik ko'rish uchun **"Onlayn darslarimizga"** ishtirok eting.

6. Yuzlar xonasidagi raqami 7, birlar xonasidagi raqami 3, o`nlar xonasidagi raqami 0 bo`lgan uch xonali sonni yozing.

A) 730 B) 703 C) 700 D) 733

7. Quyoning savoliga javob bering:



Yuzlar xonasidagi raqam 3, birlar xonasidagi raqam 0, o`nlar xonasidagi raqam 5 bo`lgan uch xonali sonni yozing.

A) 305 B) 350 C) 503 D) 530

8. Yuzlar xonasidagi raqami 9, o`nlar xonasidagi raqami yuzlar xonasidagi raqamdan 7 ga kam, birlar xonasidagi raqami esa yuzlar va o`nlar xonasidagi raqamlar ayirmasiga teng bo`lgan sonni yozing.

A) 1110 B) 927 C) 972 D) 792

9. Tarix kitobida yozilishicha 1922-yilda yurtdoshlarimiz qatag'on qurboni bo'lgan ekan. Bu voqea sodir bo'lganiga necha yil bo'lganini bilish uchun shu yilning o`nlar xonasidagi raqamni 7 ga orttirish kerak. Bu ma'lumotlarga asosan hozir nechanchi yil bo'lishi kerak?

A) 2022 B) 1997 C) 1992 D) 1945

10. Shaxrisabzdagi Oqsaroy yodgorligi 1380- yilda qurilishi boshlangan. Shu yilning yuzlar xonasini 5 ga orttirsak nechanchi yil hosil bo'ladi?

A) 1388 B) 2080 C) 1880 D) 1906

Tayyorlovchi: *Ramazon Normamatov, Abrorbek Butaev*

Prezident maktab, Al-Xorazmiy va Ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorgarlik ko'rish uchun **"Onlayn darslarimizga"** ishtirok eting.

11. Agar **526** sonining o`nlar xonasidagi raqami 7 birlik ortsa, u qanchaga ortadi?
A) 70 B) 7 C) 700 D) 596

12. Yasmina doskada yozilgan sonning toq o`rinda turgan raqamlarini, Imronbek esa juft o`rinda turgan raqamlarini ko`paytirdi. Yasmina va Imronbek hosil qilgan sonlar farqini toping.



A) 120 B) 104 C) 16 D) 108

13. Ikkita sinfdosh doskaga quyidagi sonni yozdi. Asadbek bu sonning toq o`rinda turgan raqamlarini qo`shdi. Charos esa juft o`rinda turgan raqamlarini qo`shdi. Asadbek va Charos hosil qilgan sonlar farqini toping.



A) 16 B) 4 C) 6 D) 10

14. Abrorbek doskaga bir son yozdi. Keyin bu sonning yuzlar xonasidagi raqami 5 birlik kamaytirdi, o`nlar xonasidagi raqamni 3 birlik orttirdi, birlik xonasidagi raqamni esa 2 birlik oshirdi. Yangi hosil bo`lgan sonni toping:

A) 514325 B) 514334 C) 524834 D) 614332



Tayyorlovchi: *Ramazon Normamatov, Abrorbek Butaev*

Prezident maktab, Al-Xorazmiy va Ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorgarlik ko`rish uchun **"Onlayn darslarimizga"** ishtirok eting.

15. Abrorbek quyida berilgan shakllarni ketma-ket qo'yib, yetti xonali son yozmoqchi. U dastlab yulduzchalardan, keyin esa uchburchaklardan foydalanadi. Shakllar bir nechta bo'lganida dastlab eng katta raqamli shaklni yozadi. Abrorbek bunday tartibda qanday son yozishi mumkin?



- A) 9271863 B) 9721683 C) 9721863 D) 1279368

Tayyorlovchi: *Ramazon Normamatov, Abrorbek Butaev*

Prezident maktab, Al-Xorazmiy va Ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorgarlik ko'rish uchun "[Onlayn darslarimizga](#)" ishtirok eting.